

Buxoro davlat universiteti  
o'quv-metodik kengash 3-sonli  
yig'ilishining bayonnomasidan

K O' CH I R M A

27.10.2021

Buxoro shahri

K U N T A R T I B I:

1. Turli masalalar.

Pedagogika kafedrasи o'qituvchisi B.T. Jurayevning 5110900-Pedagogika va psixologiya ta'lif yo'nalishi uchun "Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi fanidan kurs ishi tayyorlash" deb nomlangan metodik ko'rsatmani tavsiya etish.

E S H I T I L D I:

**M.Y. Faranova (kengash kotibasi)** - Pedagogika kafedrasи o'qituvchisi B.T. Jurayevning 5110900-Pedagogika va psixologiya ta'lif yo'nalishi uchun "Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi fanidan kurs ishi tayyorlash" deb nomlangan metodik ko'rsatmani nashrga tavsiya etishni ma'lum qildi. Ushbu metodik ko'rsatmaga: BuxMTI dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori Sh. X. Samiyeva va BuxDU pedagogika kafedrasи mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor Sh. Sh. Olimovlar tomonidan ijobjiy taqriz berilgani ta'kidlandi. Metodik ko'rsatma muhokamasi haqidagi Pedagogika fakulteti (2021 yil 30 sentabr) va Pedagogika kafedrasи (2021 yil 29 sentabr) yig'ilish qarori bilan tanishtirdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib o'quv-metodik kengash

Q A R O R Q I L A D I:

1. Pedagogika kafedrasи o'qituvchisi B.T. Jurayevning 5110900-Pedagogika va psixologiya ta'lif yo'nalishi uchun "Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi fanidan kurs ishi tayyorlash" deb nomlangan metodik ko'rsatmani nashrga tavsiya etilsin.
2. Ushbu qarorni tasdiqlash universitet Kengashidan so'ralsin.

O'quv-metodik kengash raissi



R.G'. Jumayev

O'quv-metodik kengash kotibasi

M.Y. Faranova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**B.T.JURAYEV**

**Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish  
metodikasi fanidan kurs ishi tayyorlash  
bo'yicha metodik ko'rsatma**

5110900 – Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'limi yo'nalishi  
talabalari uchun

**Buxoro - 2021**

**Mazkur metodik ko'rsatma bakalavriatning 5110900 – Pedagogika va psixologiya ta'lif yo'naliishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda kurs ishi, uning mazmuni, reja tuzish va kurs ishini rasmiylashtirish, kurs ishiga xulosa yozish tartibi ko'rsatilgan.**

**Tuzuvchi:** B.T.Jurayev – pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

**Taqrizchi:** ped.f.doktori, professor Sh.Sh.Olimov

*Metodik ko'rsatma Buxoro davlat universiteti o'quv-metodik Kengashining 3-sон bayonnomasi (27.10.2021) bilan nashr etishga tavsiya etilgan.*

## KIRISH

Zamonaviy ta’limda ta’lim muassasalardagi o‘qitish sifatini ta’minlashga qaratilgan tizimli islohotlar zamirida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahorati, ularning zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish borasidagi zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan sanaladi. Mamlakatimizda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini modernizatsiyalash, sohadagi zamonaviy rivojlanish tendentsiyalari, ilg‘or xorijiy tajribalar va innovatsion yondashuvlar asosida ta’lim mazmuni va o‘qitish sifatini takomillashtirish muhimligi sababli u davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

Buxoro davlat universitetida ta’lim oluvchi 5110900 – Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta’lim yo’nalishi 5-6-semestrlarda “Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitish metodikasi” fanidan kurs loyihasini bajarish ko’zda tutilgan. Bo‘lajak pedagog mutaxassislarni zamon talablari asosida aqliy, axloqiy, intellektual, estetik va jismoniy jihatdan komil inson sifatida tarbiyalash “Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitish metodikasi” fanining ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur fan orqali bo‘lajak mutaxassis o‘qituvchilar ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, yosh avlodga yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirishga doir ilmiy-nazariy, amaliy-metodik bilimlar, zarur ko‘nikma va malakalar hajmini, o‘qituvchi shaxsida namoyon bo‘lishi lozim bo‘lgan umumkasbiy va shaxsiy fazilatlarni muvaffaqiyatli egallashlari kerak.

“Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitish metodikasi” darsligi mazmunida mutaxassislik fanlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, milliy va jahon ta’lim tizimidagi ilg‘or g‘oyalarning uyg‘unligi, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, zamonaviy ilm-fan, texnika, texnologiyalar taraqqiyotini o‘ziga aks ettirib, hozirgi zamon pedagogika fanining so‘nggi yutuqlari hamda uzoq yillar olib borgan ilmiy kuzatish va mazkur fanni o‘qitish tajribasiga tayanib, mazkur fanning ilmiy-metodik asoslari xususida fikr yuritilgan.

## **KURS ISHLARINI YOZISH BO'YICHA UMUMIY TALABLAR**

Kurs ishi talabaning mustaqil ilmiy ishi bo'lib, o'quv rejasining maxsus va ixtisoslik fanlari bo'yicha olingan amaliy ko'nikma va tadqiqot natijalarini tanlangan mavzu doirasida aks ettirishi hisoblanadi. Kurs ishini yozishda talaba quyidagilarni ko'rsatishi kerak: adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalari, normativ-huquqiy va mavzu doirasidagi manbalarni tahlil qila olish va ongli xulosalar chiqara olish.

Kurs ishini bajarilishini nazorat qilish, kurs ishi himoyasini ko'rib chiqish va tashkil etish kafedra zimmasiga yuklatiladi. Talabalarga ilmiy maslahat va uslubiy yordam ko'rsatish uchun kafedra ilmiy rahbar ajratadi, u kurs ishining tayyorlik darajasini belgilaydi.

Tanlangan mavzu ustida ishslash talabidan tadqiqot metodologiyasi, ijodiy fikrlash, bahslashish va taqdimot mantiqi, muammoga shaxsiy munosabat, mehnatsevarlik va professionallik asoslarini bilishi talab etadi.

Kurs ishini yozish jarayoni bir qator o'zaro bog'liq bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Mavzu tanlash va ish rejasini ishlab chiqish.
2. Adabiyotlarni to'plash va o'rganish.
3. Tanlangan mavzu bo'yicha materiallarni ishlab chiqilgan rejaga muvofiq to'plash va tahlil qilish.
4. Asosiy nazariy qoidalar, amaliy xulosalar va tavsiyalarni shakllantirish.
5. Kurs ishini rasmiylashtirish.
6. Ilmiy rahbar tomonidan taqriz berish.
7. Kurs ishini himoya qilish.

## **KURS ISHI MAVZUSINI TANLASH VA REJASINI ISHLAB CHIQISH.**

Talabaning ijodiy ishga teran yondashishi, tanlangan mavzuning dolzarbligini, uning nazariy va amaliy ahamiyatini chuqur anglab etishi mavzuni tanlashdan boshlanadi. Amaliyat shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri mavzuni tanlash, uning muvaffaqiyatli bajarilishini yarim ta’minalash demakdir. Mavzu tanlashda talabaning qiziqishi muhim bo‘lib, unda o‘z ijodiy g‘oyalarining mavjudligi, ilmiy to‘garaklarda so‘zlashish tajribasi egaligi, muammoni tushunishi va uni to‘liq o‘rganishga intilishi nazarda tutiladi. Agar talaba mavzu tanlashda qiyalsa, o‘qituvchidan yordam so‘rashi mumkin. Mavzuni tanlangan holda talaba uning mohiyati nimada ekanligini tushunishi kerak. Bu talabaga bo‘lajak tadqiqot chegaralarini to‘g‘ri tushunish va ish rejasi uchun savollar tuzish imkoniyatini beradi. Kurs ishi mavzulari banki ko‘pligi talabalar tomonidan tanlash takrorlanishini oldini oladi.

Mavzu aniqlangandan so‘ng talaba tanlangan mavzuni qayd etadi, bu esa o‘z navbatida mavzularning takrorlanishini oldini olishga xizmat qiladi. So‘ngra kafedra mudiri tomonidan tanlangan mavzu bo‘yicha ilmiy rahbar tayinlanadi. Talabaning iltimosiga ko‘ra tanlangan mavzuni o‘zgartirish yoki rahbarni almashtirish yozma asoslagan holda amalga oshiriladi.

Kurs ishi mavzusini rasmiylashtirish ish rejasini tayyorlashdan boshlanadi. Talabaga tanlangan tadqiqot mavzusi bo‘yicha ishni aniq tashkil etadigan ish rejasini ishlab chiqish taklif etiladi. Dastlab ish rejada tadqiqot predmetiga faqat asosiy nuqtai nazardan tavsif beriladi, biroq kelajakda bunday reja o‘zgartirilishi mumkin, lekin umuman ish oldida turgan asosiy vazifa o‘zgarishsiz qoladi.

Kurs ishining ish rejasi o‘z ichiga olishi kerak:

- kirish;
- boblar va paragraflarga bo‘lingan asosiy qism;
- xulosa;
- foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;
- ilovalar.

## **KURS ISHI BO‘YICHA TADQIQOT MATERIALLARINI YIG‘ISH VA TAHLIL QILISH**

Bu kurs ishini yozishda eng qiyin va vaqt talab qiladigan bosqichlardan biridir. Talaba katta hajmdagi me’yoriy-huquqiy, adabiyotlar: tadqiq etilayotgan masalalar bo‘yicha normativ-huquqiy manbalar, olimlarning turli yondashuv va qarashlarini aks ettiruvchi monografiyalar va ilmiy maqolalar hamda tadqiqot jarayonida aniqlangan muammolarni hal etishning turli yo‘llari bilan tanishishi kerak bo‘ladi.

Mavzuni to‘liq ochib berish zarurati talabadan OTM kutubxonalari bilan cheklanib qolmasdan, shahar kutubxonalariga murojaat qilishni talab etadi. Kurs ishi mavzusi bilan mazmuni bog‘liq bo‘lgan manbalarning barcha turlari ko‘rib chiqilishi lozim. Ishni o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha materialni o‘z ichiga olgan darslik va qo‘llanmalarning o‘sha bob va bo‘limlari mazmuniga batafsilroq kirish bilan boshlash kerak. Yaxshi bajarilgan kurs ishining qiymati, muallif tomonidan olimlarning turli pozitsiyalarini tahlil qilishi, ular orasida muammoning mohiyatini aks ettiradigan va (yoki) ushbu masalani hal qilish bo‘yicha o‘z qarashlarini taklif qiladigan pozitsiyani aniqlashga harakat qilishida ifodalanadi. SHuning uchun o‘quv materiali mazmuni bilan tanishish bilangina cheklanish maqsadga muvofiq emas, ayniqsa, o‘quv materiali o‘rganilayotgan muammoni dinamikasini tartibga solishdan orqada qoladi.

Kurs ishi mavzusida tadqiqotda eng asosiy g‘oyasi axborot va bibliografik nashrlarni o‘rganish natijasida shakllanadi. Ilmiy, o‘quv va boshqa adabiyotlarni bosqichma-bosqich o‘rganish maqsadga muvofiqdir:

Asarga uning mundarijasi bo‘yicha umumiy kirish:

- barcha kontentning tezkor ko‘rinishi;
- materialni ketma-ketligi tartibida o‘qish;
- asarning biron qismini tanlab o‘qish;
- qiziqtirgan materiallarni ko‘chirib olish;
- qayd etilgan, tahrir qilingan va yakunlovchi yozuvni kelgusi kurs ishi matnining fragmenti sifatida tanqidiy baholash.

O‘qilgan materialning yozuvlari juda xilma-xil bo‘lishi mumkin: oddiy yoki batafsil reja, tezislar, sitatalar. Ko‘rib chiqilgan adabiyotning murakkabroq shakli

konspektidir.

Konspektlashning quyidagi usulini tavsiya qilamiz: daftar sahifasi vertikal chiziq bo‘yicha ikkiga bo‘linadi, o‘qishning asosiy nuqtalari chap tomonda qayd qilinadi va o‘z izohlaringiz o‘ng tomonda amalga oshiriladi. O‘qigan materialingizni tahlil qilish natijasida paydo bo‘lgan va shu bilan bir qatorda o‘ylab topgan o‘z fikrlaringiz yangi bilim olishning sintezi bo‘lib xizmat qiladi. O‘rganilayotgan manbalarni tizimlashtirish ularni tahlil qilish va umumlashtirish samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi. SHaxsiy kompyuterdan foydalanish bu ish bosqichida beba ho yordam bo‘lishi mumkin. Ushbu ishning natijasi o‘rganilayotgan muammoni muhim bilish va asosiy nazariy hamda amaliy qoidalarni shakllantirishning mantiqiy qurilgan tizimi bo‘lishi kerak.

### **KURS ISHINING TARKIBIY TUZILISHI.**

Kurs ishi yakuniy malakaviy ishning turi bo‘lganligi uchun uni baholash nafaqat muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning sifatiga, balki kurs ishining umumiyl uslubiy tayyorgarlik darajasiga ham bog‘liq. Avvalo, bu uning kompozitsiyasida aks etadi.

Kompozitsiya-kurs ishini shakllantirish, ya’ni muallif matnning barcha tarkibiy darajalarida qurish, asarning alohida elementlarini yagona va mantiqiy bir butunlikka joylashtirish borasidagi ishlardir. Tadqiqot materiali nafaqat kerakli ma’lumotlarni taqdim etishi, balki fikrlash mantig‘ini ham o‘rgatishi kerak. Mantiqiy reja oddiy materialdan murakkabroq va ma’lum axborotdan yangi axborotga o‘tish izchil, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan tarzda ishlab chiqiladi, shunda bir bayon boshqasidan kelib chiqadi.

Bu masalada standart yo‘q va bo‘lishi mumkin emasligiga e’tibor berish kerak. Muallif tadqiqot natijasida olingan materialni tartibga solishning u yoki bu tartibini tanlash huquqiga ega-bunda qo‘llaniladigan yagona mezon tadqiqot mavzusining ichki mantiqiy munosabati va oshkorasidir.

SHunga qaramay, kurs ishining muayyan kompozitsion tuzilishi an’anaviy tarzda shakllantirilgan bo‘lib, asosiy elementlarini qo‘yidagi tarzda tartibga solish talab etiladi:

- titul varag‘i;

- mundarija;
- kirish;
- asosiy qism (boblar va paragraflar);
- xulosa;
- foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;
- ilovalar

### ***Titul varag‘i***

Titul varag‘i qo‘yidagilarni qamrab olishi kerak:

- ta’lim muassasasi va kafedra nomi;
- ta’lim yo‘nalishi;
- kurs ishi mavzusining raqami va nomi;
- talabaning to‘liq ismi;
- rahbarning ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, lavozimi, familiya, ismi-sharifi;
- “topshirish sanasi”, “himoya sanasi”, “baholash”.
- kurs ishi yozilgan joy va yil.

### ***Mundarija***

Mundarija titul varag‘idan keyin joylashtiriladi. Mundarija kurs ishining barcha sarlavhalarini o‘z ichiga oladi va ular boshlanadigan sahifalarni ko‘rsatadi. Mundarijadagi sarlavhalar kurs ishi matnidagi sarlavhalarni aynan takrorlashi kerak.

### ***Kirish***

Kurs ishining kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbliji, uning tadqiqotchanlik darajasi tushuntiriladi, tadqiqot ob’ekti va predmeti, ishning maqsadi va vazifalari, muammoning o‘rganilganlik darajasi va kutilayotgan natijalar, tadqiqot uchun qo‘llaniladigan metodlar belgilanadi.

***Mavzuning dolzarbliji.*** Kirish qismida talaba muammoning tadqiq etishning zaruriyati, muhimligi va ijtimoiy ahamiyatini ko‘rsata olishi lozim. Mavzuning dolzarbligini yoritish barcha ilmiy ishlarda majburiy talabdir. Muallif mavzuni tanlagan ekan, uning ilmiy salohiyati va kasbiy tayyorgarligi, albatta, bu mavzuni ma’nosini tushunib etishi va uni zamon talabiga mosligi hamda ijtimoiy muhimligini baholay olishi kerak. Dolzarblikni yoritishda asossiz gaplar yozilmasligi kerak. Mavzuning

dolzarbligining asosiy omillarini to’liq bir sahifada ko’rsatish etarli bo’ladi.

**Mavzuning o’rganilganlik darajasi.** Kurs ishining ushbu qismida mavzu kimlar tomonidan qaysi tomonlari o’rganilganligi, qaysi qismi o’rganilmaganligiga alohida urg‘u beriladi.

**Tadqiqot ob’ekti** – bu muammoli vaziyatni yuzaga keltiradigan muayyan jarayon yoki hodisa, bu muammoning o‘ziga xos tashuvchisi, tadqiqotchilik faoliyati yo‘naltirilgan narsa.

**Tadqiqot predmeti** ob’ektning aniq bir qismi bo‘lib, uning ichida izlanish olib boriladi. Hodisalar, ularning ayrim tomonlari tadqiqot predmeti bo‘lishi mumkin. Tadqiqot predmetini tadqiqotchi ilmiy izlanishlar natijasida tadqiqot ob’ekti haqida oladigan yangi ilmiy bilim sifatida belgilash mumkin.

**Tadqiqot maqsadi** bu talaba o‘z kurs ishisini yakunlashda erishishni xohlagan pirovard natijadir. Muammo echimi talaba ishining maqsadi sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqsad tadqiqotning xarakteri, borishi va vazifalarini belgilovchi o‘ziga xos oxirgi sababdir. SHu asosda ish tuzilishining aniq maqsadga bo‘ysundirilishi kerak bo‘lgan mantiqiyligi kelib chiqadi. Tadqiqot maqsadini ifodalashda ishlatiladigan iboralar va so‘z birikmalari: «*aniqlash...*», «*belgilash...*», «*asoslash...*», «*aniqlashtirish...*», «*ishlab chiqish...*» .

**Tadqiqot vazifalari** bu ilgari surilgan farazga muvofiq maqsadga erishish uchun yo‘llar va vositalarning tanlanishidir. Vazifalarni maqsadga erishish uchun qilinishi zarur bo‘lgan narsaning tasdiqlanishi shaklida ifodalash eng ma’qul variantidir. Vazifalarning qo‘yilishi tadqiqot maqsadining kichik maqsadlarga bo‘linishiga asoslanadi. Vazifalarning sanab o‘tilishi unchalik murakkab bo‘lmagan vazifalardan eng murakkab, ko‘proq mehnat talab qiladigan vazifalarga tomon yurish tamoyili bo‘yicha quriladi, ularning soni esa tadqiqotning teranligi bilan belgilanadi. Vazifalarni juda sinchiklab ifodalash zarur, chunki keyinchalik ular echimlarining bayoni boblar mazmunini tashkil etadi. Boblar sarlavhalari ayni shu vazifalar ifodalaridan hosil bo‘ladi.

**Tadqiqot metodlari.** Metod (lotincha «*metodos*»-«*yo‘l*») tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida "metod" so‘zi keng ma’noda

muayyan maqsadga erishish yo‘lini, tor ma’noda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari hamda qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish usulini bildiradi. Kurs ishini yozishda maxsus metodlar foydalanilarki, ular yordamida ta’lim-tarbiya jarayoniga oid muhim faktlar, turli pedagogik vaziyatlar mohiyatlari, mehanizmlari, xususiyatlari o‘rganiladi. Kurs ishining tadqiqot bosqichlari quyidagilardan iborat: ma’lumotlarni yig‘ish, xulosalarni jamlash, tadqiqot bo‘yicha miqdoriy tahlil o‘rtacha miqdoriy raqamlarni aniqlash, xulosalarning to‘g‘riligini ta’minlovchi ma’lumotlarni yig‘ish: (buning uchun turli xil metodlar qo‘llaniladi), ta’lim-tarbiya jarayoniga oid ishchi farazni ilgari surish, uni nazariy va amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazish mahsus metodikasini ishlab chiqarish va boshqalar. Mutaxassislik fanlardan kurs ishi yozishda asosan quyidagi pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalaniladi: adabiyotlar va arxiv materiallarini o‘rganish, kuzatish, suhbat, so‘rov, test, eksperiment va h.k.

Kirish yakunida kurs ishining tuzilishini ochib berish, ya’ni uning tarkibiy elementlari ro‘yxatini berish maqsadga muvofiqdir.

Kirish qismida tadqiqot muammosi bo‘yicha biron-bir kategoriyaning mazmuni va ta’rifi bo‘lmasligi kerak, bularning barchasi asosiy qismdagi bob va paragraflarda o‘z aksini kerak. Kirish hajmi 2-3 sahifadan oshmasligi kerak.

### **Asosiy qism (boblar va paragraflar)**

Kurs ishi asosiy qismining boblari va paragraflarida mavzu bo‘yicha tadqiqot jarayonida muallif tomonidan olingan tahliliy material batafsil yoritiladi va kirish qismida ko‘rsatilgan muammoning mohiyati bo‘yicha ilmiy olamdagি bahsmunozaralarni aks ettiradi hamda uni hal etish yo‘llari shakllantiradi. Boblar mazmuni kurs ishi mavzusiga aynan mos kelishi va uni to‘liq ochib berishi lozim. Asosiy qism mazmunini taqdim etish jarayonida muallif har qanday pozitsiyani quruq bayon qilishdan tiyilishi kerak. Har bir bob tadqiqot xulosasi bilan yakunlanishi kerak.

### **Xulosa**

Kurs ishining bu qismi asosiy qismda to‘plangan ilmiy ma’lumotlarning sintezi bo‘lgan yakunlovchi qismi hisoblanadi. Xulosa olingan natijalarni mantiqan izchil taqdim etish va ularning umumiyl maqsad va aniq vazifalarga munosabatlari kirishishda belgilangan va shakllantirilgan holda tuziladi. Mohiyatan xulosa kurs ishining har bir

bobi oxirida muallif tuzgan xulosalarning tahlili va sintezidir.

Ayrim hollarda bu mavzu bo'yicha keyingi tadqiqotlarning yo'llari, uning shakl va usullari hamda bo'lajak tadqiqotchilar hal etishi lozim bo'lgan aniq vazifalarni birinchi navbatda ko'rsatib o'tish lozim. Xulosa muallif tomonidan bajarilgan tadqiqot ishining qiymatini oshiradigan amaliy takliflarni o'z ichiga olishi mumkin. Mazkur takliflar tadqiqot materiallariga asoslangan va kurs ishida muallif tomonidan taqdim etilgan bo'lishi kerak.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati***

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati kurs ishi matnida havola qilingan barcha ilmiy va boshqa nashrlar ro'yxatidan iborat bo'lishi kerak. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati quyidagi uch qismdan iborat bo'ladi:

- normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar;
- monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar;
- foydalanilgan boshqa adabiyotlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati alifbo, sistematik yoki matnda havola qilinishi ketma-ketligi tarzida keltiriladi.

Kurs ishida foydalilmagan va havola qilinmagan adabiyotlarni ro'yxatga kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

Kurs ishida foydalangan materiallar manbai, uning muallifi va nomi to'liq ko'rsatilishi lozim.

### ***Ilovalar***

Muammoni tushunish uchun muhim bo'limgan barcha materiallar ilovaga kiritiladi. Ilovalar matnda ko'rsatilgan tartibda foydalanilgan adabiyotlardan keyin joylashtiriladi. Ilovalar kurs ishida belgilangan betlar miqdoriga kirmaydi. Ilovalarga odatda turli diagrammalar, grafiklar, jadvallar, sotsiologik tadqiqotlardan olingan ma'lumotlar va boshqalar kiradi. Barcha ilovalar o'z tartib raqamiga ega bo'lishi kerak (1-, 2-, 3-, ...- ilova). Har bir ilova yuqori o'ng burchakdagi "1-ilova" so'zi bilan yangi varaqdan boshlanishi va uning mazmunini tushuntiruvchi tematik nomga ega bo'lishi kerak.

## **KURS ISHINI RASMIYLASHTIRISHNINGUMUMIY TALABLARI**

Kurs ishining umumiy hajmi qo'l yozmada 35-40 varaq, kompyuterda esa A4 formatda 25-30 betdan kam bo'lmasligi kerak. Ilovalar ko'rsatilgan hajmga kirmaydi.

Ishda me'yoriy hujjatlar va orfografik qoidalar bo'yicha qa-bul qilingan shartli qisqartirishlar kiritishga ruxsat beriladi. Masalan: y.– yil, yy.– yillar, sh.k.– shu kabi, OTM – oliy ta'lim muassasasi, KHK – kasb-hunar kolleji va boshqalar. Lekin mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi faniga oid, umuman, pedagogika sohasiga oid atamalar imkon qadar qisqartirilmasdan yoziladi. Ushbu holatni inobatga olib, kurs ishida qisqartma so'zlarni kamroq ishlatish tavsiya etiladi.

Kurs ishida ba'zi so'z birikmalari qayta-qayta kelishi ko'zda tutilsa, ushbu so'z birikmalarini birinchi yozilishida to'liq yozib, so'z birikmasi tugashi bilan qavs ohib, ushbu so'z birikmasini qisqartma ko'rinishini keltirish kerak. So'ng, ushbu so'z birikmasi qaytarilsa, qisqartma ko'rinishini yozish mumkin. Masalan, bilim, ko'nikma, malaka (BMK), pedagogik texnologiya (PT) va boshqalar.

Kurs ishini yozishda chap tarafida 3 sm, pastda 2 sm, tepada 2 sm, o'ngda 1 sm joy qoldirish tavsiya qilinadi, bunda bir varaqda 28-30 qator ñzuv bo'lishi zarur. Kurs ishining barcha betlari titul betidan oxirgi betigacha tartib bilan raqamlanadi.

Qismlarning nomlanishi bosh harf bilan yoziladi. Qism ichidagi nomlanishlar xatboshidan kichik harflar bilan yoziladi. Asosiy qism ichidagi savollarni sarlavhalarini yozishda bo'g'in ko'chirishga ruxsat berilmaydi. Sarlavha oxirida nuqta qo'yilmaydi. Sarlavhaning tagiga chizib yozishga ruxsat etilmaydi. Har bir sarlavhadan oldin arab raqami bilan raqamlar qo'yiladi va raqamdan so'ng nuqta qo'yiladi. Agarda savol ichida savollar keltirilsa, masalan, birinchi savol ichida bitta savol "1.1.", ikkita savol bo'lsa "1.2." shaklda yoziladi.

Kirish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar boshlanishida raqam qo'yilmaydi. Kurs ishining har bir qismi yangi betdan boshlanadi. Kirish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va asosiy qism savollari bir xilda, varaqning yuqori qismining o'rtasiga yozish tavsiya etiladi.

Illyustratsiya (surat)lar ko'rish uchun qulay tarzda joylashtirilishi kerak. Barcha surat (grafik, chizma, diagramma, fotosurat)lar, "rasm" so'zi va bo'lim bo'yicha ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Ilovalarda keltirilgan suratlar bundan mustasno.

Surat raqami bo'lim va su-rat raqamidan iborat bo'lib, nuqta bilan ajratiladi, masalan "1.2-rasm" va izoh beruvchi yozuv pastga yoziladi.

Raqamlar materiallar jadval ko'rinishida rasmiylashtirilishi lozim. Har bir jadval sarlavhaga ega bo'lishi kerak. Sarlavha bosh harf bilan boshlanadi. Sarlavahani ostiga chizilmaydi. Jadvalning sarlavhasi uning yuqorisiga, o'rtaga yozilishi tav-siya etiladi. Jadval grafalarining sarlavhalari bosh harflar bi-lan, sarlavhachalar esa, agar ular sarlavha bilan bitta gapni tash-kil etsa, kichik harflar bilan, agar ular mustaqil bo'lsa, katta harflar bilan boshlanishi kerak. Jadvalning bosh qismini dioga-al bo'yicha bo'lish mumkin emas.

Ko'plab grafalarga ega bo'lган jadvalni qismlarga bo'lish va bir qismni ikkinchi qismdan keyin joylashtirishga ruxsat etiladi.

Bo'limgan doirasidagi jadvallar izchil, ketma-ket arab ra-qamlari bilan belgilanadi. Masalan: "1-jadval", "2-javdal" va h.

Agar kurs ishida bitta jadval bo'lsa, u raqamlanmaydi va "jadval" so'zi yozilmaydi.

Jadvalning biror qismi boshqa betga o'tganda, "jadval" so'zi va uning tartib raqami bir marta jadvalning birinchi qismi us-ida ko'rsatilib, qolgan qismlar ustiga "davomi" degan so'z yoziladi.

Matndagi manbalarga havola ("snoska")larni satr osti eslatmalarida keltirish lozim. Havola har bir betda arab raqamida ketma-ket tartib bilan keltirilishi lozim. Keyingi betda esa yana boshidan tartib bilan ilova qo'yilishi tavsiya qilinadi.

Havolalarni keltirish tartiblari:

- hujjat va ta'rifni tasdiqlash uchun iqtibos keltirganda;
- zamonaviy adabiyotlar va birlamchi manbalar bo'yicha iqtibos keltirganda;
- adabiyotlardan va boshqa manbalardan biror muammo, xulosa yoki takliflardan iqtibos keltirganda;
- davlat arboblari, olimlar va mutaxassislar fikrlaridan iqtibos keltirganda;
- statistik ma'lumotlar va to'plamlardan iqtibos keltirganda;
- me'yoriy-huquqiy hujatlardan iqtibos keltirganda;
- bir betda iloji boricha 3 tadan ko'p iqtibos keltirish tavsiya qilinmaydi;

## **KURS ISHINI HIMOYA QILISH**

Dekanat tomonidan kafedra bilan kelishilgan holda kurs ishlarini topshirish va himoya qilish reja jadvali ishlab chiqiladi va kurs ishini topshirish va himoya qilish muddatlari kafedra mu-diri tomonidan o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Talaba tayyor bo'lган kurs ishini kafedra kotibasiga topshiradi. Kotiba ushbu kurs ishini ro'yxatga olish kitobida ro'yxatdan o'tkazib, kurs ishi titul varag'iga ro'yxatdan o'tkazilgan sana va ro'yxat tartib raqamini yozadi. So'ng ilmiy rahbarga topshiradi.

Ilmiy rahbar kurs ishini ro'yxatdan o'tgan sanadan boshlab bir hafta ichida ko'rib chiqib, uni talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, ishni o'z taqrizi bilan birga kafedraga taqdim etadi.

Kurs ishida qo'pol xato-kamchiliklar bo'lmasa, himoyaga tavsiya etiladi. Talaba ko'rsatilgan xato-kamchiliklarni asoslash yoki to'g'rakash uchun kurs ishi himoyasigacha tayyorlanishi kerak.

Agarda kurs ishida xato-kamchiliklar ko'p bo'lsa, ularni bartaraf etgandan so'ng, himoyaga tavsiya etilishi ko'rsatilgan bo'lsa, u xolda xato-kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng, ikkinchi marta yana himoyaga tavsiya etish uchun taqriz yoziladi.

Agarda talaba kurs ishini sababsiz o'z vaqtida topshirmasa, kamchiliklar to'liq bartaraf etilmasa, u holda ilmiy rahbar kurs ishi himoyaga qo'yilmaydi deb yozma xulosa beradi. Kotiba taqriz yozilgan kurs ishini topshirilgan kun bilan ro'yxatdan o'tkazib qo'yishi kerak. Kurs ishlarini ro'yxatga olish kitobida har bir guruhni alohida betga rasmiylashtirish tavsiya etiladi.

Kurs ishini himoya qilish kuni va himoyada qatnashuvchi komis-siya tarkibi kafedra majlisida belgilanadi. Kurs ishi himoyasida qatnashuvchi komissiya tarkibi 3-5 ta a'zodan iborat bo'ladi. Kurs ishi himoyasida komissiya tarkibidan kamida 3 ta azo bo'lishi ta-lab etiladi.

Har bir talaba uchun kurs ishi himoyasi 10-15 daqiqa (5-7 da-qiqagacha talaba ma'ruzasi, 5-10 daqiqagacha savol-javob) davom etadi. Talaba o'z ma'ruzasida mavzu to'g'risida qisqacha tushuncha berishi, ya'ni mavzuning dolzarbligi, muammosi, xulosa va taklif haqida to'xtalishi zarur. Shuningdek, taqrizda ko'rsatilgan kamchiliklar haqida to'xtalishi kerak.

Himoyadan so'ng, komissiya a'zolari yopiq majlis o'tkazib, tala-balarning ishini baholash qarorini qabul qiladi.

Komissiya a'zolari quydagicha qarorni qabul qilishi mumkin:

- kurs ishini himoya qilganligini bildiruvchi baho qo'yilishi;
- himoyaga kiritilmagan bo'lishi;
- «himoyaga kelmadi» bo'lishi;
- himoyada qoniqarsiz baho olgan bo'lishi;
- qayta himoya qilish uchun muddat berilishi;
- boshqa mavzuda qayta ishlab, himoya qilish tavsiya qilinishi.

Uzrli sabab bilan kurs ishini belgilangan muddatda himoya qilmagan talabalarga dekanning ruxsati bilan, komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar, boshqa muddatlarda himoya qilishga ruxsat beriladi.

## **KURS ISHLARIGA TAQRIZ YOZISH TARTIBI**

Taqriz lotincha "rezensiya" so'zidan olingan bo'lib, "qayta ko'rib chiqish, xabar qilish, tavsif, baho berish" degan ma'nolarni anglatadi.

Kurs ishiga taqriz-bu tadqiqotning rasmiy yozma sharhidir, uning tahlili va bahosini o'z ichiga oladi. Tadqiqot mavzusiga mos keladigan profilda oliy ma'lumotli diplomga ega bo'lgan mutaxassis tomonidan tuziladi. Taqrizchilar universitet o'qituvchilari yoki talabaning ilmiy rahbari bo'lishi mumkin. Agar ish ma'lum bir korxona yoki tashkilot misolida yozilgan bo'lsa, uni amaliyot uchun foydalanilayotgan usha korxona yoki tashkilotning rahbari tomonidan berilishi mumkin.

Taqrizchi vazifalariga quyidagilar kiradi:

Kurs ishi mavzusining dolzarbliji, ilmiy yangiligi va tugallanganligi to'g'risida xulosa taqdim etish;

dastlabki himoyadan kamida 3 kun oldin taqriz taqdim etish;

kasb odob-axloqi qoidalarining buzilishi holatlari (plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish, yolg'onssitata keltirish va boshqalar) aniqlangan taqdirda, ularni taqrizda ko'rsatish.

Kurs ishiga taqrizning umumiylajmiy hajmi bir yarim interval bilan Times New Roman

uslubining 14-shriftida yozilgan ikki sahifadan ortiq bo‘lmasligi lozim.

Kurs ishiga taqriz ushbu tuzilishga rioya qilish kerak:

mavzuning dolzarbligi;

kurs ishining qisqacha mazmuni;

ishning ijobiy tomonlari;

ishning kamchiliklari va ularning tahlili;

xulosa.

Mavzuning dolzarbligi. Ushbu bo‘limda muammoni tadqiq qilish zarurligini qo‘llab-quvvatlovchi argumentlar qisqa shaklda keltiriladi.

Kurs ishining qisqacha mazmunida ilmiy ishning asosiy g‘oyasi shakllantirilib, kirish qismida ko‘rsatilgan tadqiqot maqsadi, ishning mazmuni va har bir bobning mazmuni olib beriladi, grafik material, jadval, ilova va adabiy manbalar soni ta’minlanadi.

Ishning ijobiy tomonlarida esa tadqiqot chuqur o‘rganilganligi baholanadi: mavzuning nazariy jihatlari etarli darajada o‘rganilganmi va empirik material to‘planganmi va qayta ishlanganmi. Bu erda tadqiqotning amaliy ahamiyatini ham baholashingiz mumkin: amaliyot bilan munosabatlar va natijalar va natijalarni qo‘llash imkoniyati.

Ishning kamchiliklari va ularning tahlili. Taqrizning bu qismida ishda uchraydigan kamchiliklar, orfografik xatolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatiladi.

Taqrizning xulosa qismida esa, ishning talablarga muvofiqligi haqidagi xulosa va baho berish taklif qilish kerak.

Buxoro davlat universiteti maktabgacha ta'lim yo'nalishi \_\_\_\_\_ guruuh talabasi  
ning " \_\_\_\_\_ " fanidan

" \_\_\_\_\_ " mavzusida yozilgan kurs ishiga  
**TAQRIZ**

**1. Mavzuning dolzarbliji:** \_\_\_\_\_

**2. Kurs ishi mazmunining vazifaga mosligi (Ha, yo'q) \_\_\_\_\_;**

**3. Foydalanilgan manbalarga havolalar mavjudligi \_\_\_\_\_;**

**4. Foydalanilgan adabiyotlar soni \_\_\_\_\_;**

**5. Illyustratsiyalar, formulalar va jadvallar rasmiylashtirish talablariga muvofiqligi \_\_\_\_\_**

**6. Ishning ijobiy tomonlari \_\_\_\_\_**

**7. Kamchiliklar va xatolar**

**8. Kurs ishida xulosa va takliflarning mavjudligi \_\_\_\_\_**

**9. Ishning himoyaga tavsiya etilishi.**

Ilmiy rahbar:

Sana:

## KURS ISHLARINI BAHOLASH MEZONLARI

Kurs uchun kursslarni tayinlashda quyidagi omillar hisobga olinadi:

- ishning mustaqil bajarilganligi;
- o'r ganilayotgan masala tarixi va nazariyasini bilish;
- axborotlarni yig'ish va qayta ishlash ko'nikmalari;
- ishning axborotga to'yinganligi (foydalaniladigan ma'lumotlarning kengligi, ularning dolzarbliji);
- manbalar va adabiyotlarni ilmiy tahlil qilish ko'nikmalari;
- ish strukturasining sifati (qo'yilgan maqsadlarga izchilligi, etarliligi);
- savodli yozish;

- dizaynning aniqligi va savodxonligi, ilmiy apparat bilan ishlash qobiliyati;
- ilmiy etika normalariga rioya qilish.

Talabalarning kurs ishlarini baholash “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi” Nizomga asosan amalga oshiriladi. Mazkur Nizomga tayangan holda kurs ishlarni baholash mezonini ko‘rib chiqamiz:

**“A’lo” baho.** *Kirish qismida mavzuni tanlash uchun asos aniq ko‘rsatilgan bo‘lsa, ilmiy sohadagi dolzarbligini to‘liq ochib berilsa, kurs ishining maqsad va vazifalari aniq belgilab olinsa, kurs ishining asosiy qismida muallif tomonidan tahlil etilgan adabiyotlar ko‘pligi, asosiy atamalar to‘g‘ri tahlil etilganligi, manbalar tanqidiy tahlil qilinganligi, xulosalar mavjudligi, mantiqiy xulosalar va o‘z munosabati aniq ifodalay olganligi, o‘rganilgan nazariyalar va usullarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatidan xabardorligi, ilovada jadvallar, illyustratsiyalar va diagrammalar mavjudligi, terminologiyani etarli darajada qo‘llaganligi, ishni ko‘rsatilgan tartibda rasmiylashtirilganligi, ish hajmining etarliligi, shuningdek himoya vaqtidagi talabaning nutqi ravonligi inobatga olinib, “a’lo” baho bilan baholanadi.*

**“Yaxshi” baho.** *Kurs ishining kirish qismida ba’zi noaniqlik mavjud bo‘lsa, asosiy qismida tanqidiy to‘liq amalga oshirilmaganligi, terminologiya noto‘g‘ri ishlatilganligi, ishda kichik orfografik va stelistik xatolar mavjudligi, adabiyotlar va ilovalarni rasmiylashtirishda kichik noaniqliklar borligi, himoya jarayonidagi talabaning nutqi o‘rta darajada ekanligini inobatga olib, “yaxshi” baho bilan baholanadi.*

**“Qoniqarli” baho:** *kurs ishi kirish qismida faqat mavzu tanlash va dolzarbligini oqlashga o‘ringanligi, aniq tahriri yo‘qligi, vazifalar va maqsadlar noaniq belgilanganligi, asosiy qismda boshqalarning g‘oyalarini qayta takror qilinganligi, taqdimot mantig‘i buzilganligi, muallif ijodiy yondashmaganligi, ilovada bir nechta qo‘pol xatolar mavjudligi, ilmiy atamalar ko‘pincha noto‘g‘ri ishlatilganligi, plagiat borligi, himoyada nutqi sayozligini ko‘zatilsa talaba “qoniqarli” baholanadi.*

**“Qoniqarsiz” baho.** *Bunday kurs ishini baholashda uning kamchiliklari darhol ko‘rinadi. Kurs ishi kirish qismida mavzuni asoslash mavjud emas, mavzuni yangiligi*

*ko 'rsatilmagan, ishning maqsad va vazifalari ham aniqlanmagan, foydalanilgan adabiyotlarning kamligi, mavzu doirasida tanqidiy tushuncha ham, o'zini fikri ham mavjud emas. Umumlashma yoki xulosalar yo'q. Ish xulosalanmagan. Hech qanday ilova yo'q, yoki etarli emas. Asarda ma'lumotnomalarning yo'qligi, plagiarismi, uslubi saqlanmagan va terminologiyadan foydalanish kamligi ko'rsatilgan. Rasmiylashtirishda bir qator kamchiliklar mavjud: bibliografiyada ko'plab xatolar mavjud. butun ishning hajmi belgilangan me'yordan kam va talabaning himoya vaqtida mavzuni yorita olmasligiga qarab "qoniqarsiz" baholanadi. Kurs ishini o'z vaqtida asosli sababsiz topshira olmagan talaba "qoniqarsiz" baholanadi. Kurs ishi uchun qoniqarsiz baho olgan talaba kurs ishini belgilangan muddatda qayta topshirishi mumkin.*

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni. - T., 2020.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг қундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти нутқи. // Халқ сўзи газетаси, 2017.16 январ, №11
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. “Ўзбекистон”, 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги - инсон манфаатларини таъминлаш тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. “Ўзбекистон”, 2017.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Олий таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида» 2001 йил 16 августдаги 343-сон қарорига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақидги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 10 январдаги 3-сон қарори. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2015 й., 2-сон, 21-модда
6. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев 2017-2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракат стратегияси. 7 февраль 2017 йил.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-2909-сонли «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори, Тошкент ш., 2017 йил 20 апрель
8. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017йил, 6-сон,70-модда.
9. Олий таълим муассасаларида талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолаш тизими тўғрисидаги Низом. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирининг 2018 йил 9 авгуистдаги 19-2018-сон буйруғи. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.09.2018 й., 10/18/3069/1965-сон
10. Abdullayeva. SH., Axatova. D.A Pedagogika. Toshkent. «Fan» 2004-y.

11. Davronov I.E., Jurayev B.T. Pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi. –B.: Durdona, 2019
12. Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika. – T.: Fan, 2006.
13. Hasanboeva O., Djamilova N. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi. - T.: 2008.
14. Hayitov A.G'. Pedagogik dastur vositalarini yaratishga qo'yiladigan didaktik va psihofiziologik talablar //J. Pedagogik mahorat, 2001, 1-son. –B. 61—66.
15. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.
16. Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. – T.: Fan, 2001.
17. Ochilov M., Ochilov N. Oliy mакtab pedagogikasi (darslik) –T. “Aloqachi”, 2008.
18. Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х., Ҳайдаров М., Ҳасанбоева О., Усманов Н.. Педагогика фанидан изоҳли лугат. Т.: “Фан ва технология”, 2009, 464-бет
19. <http://www.istedod.uz/>
20. <http://www.pedagog.uz/>
21. <http://www.ziyonet.uz/>

## «Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi» fanidan kurs ishlari mavzulari

1. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari
2. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi
3. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi fani prinsiplari
4. Pedagogik fanlar tizimi va ularning o'zaro aloqasi
5. Pedagogika sohalarining o'ziga xos xususiyatlari
6. Zamonaviy didaktik kontseptsiyalar.
7. Rivojlantiruvchi ta'limning asosiy kontseptsiyalari tavsifi
8. Shaxsni rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasini ishlab chiqishga zamonaviy yondashuvlar
9. Pedagogik fanlarni o'qitish jarayoni mohiyati va uning vazifalari.
10. Ta'lim jarayonining tuzilishi
11. O'qitish va o'qish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi.
12. O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi
13. Ta'im nazariya (kontseptsiya)lari mazmuni
14. Hozirgi zamon bosqichida ta'lim mazmunini belgilovchi muhim g'oyalar (asoslar)
15. Pedagogik fanlar mazmunini tanlab olish tamoyil va mezonlari
16. Pedagogik fanlar mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar.
17. Ta'lim metodi va usullari tushunchalari
18. Pedagogik fanlarni o'qitish metodlarining tasnifi
19. Pedagogik fanlarni o'qitish vositalari va ularning tasnifi
20. Ta'lim turlari va shakllari tavsifi.
21. Ta'limni tashkil etish tizimi
22. Pedagogik fanlarni o'qitishning asosiy shakllari
23. Pedagogik fanlarni o'qitishning yordamchi shakllari
24. Pedagogik fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xosliklari
25. Pedagogik fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalardan foydalanish yo'llari
26. Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati.
27. O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari
28. Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari.
29. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakl, va metodlari
30. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari
31. Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasining predmeti, maqsad va vazifalari
32. Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasining qonuniyatları, o'qitish tamoyillari
33. V.N.Karandashev bo'yicha ta'lim tamoyillari va ularning dolzarbligi
34. Oliy mакtabda o'qitish tamoyillari

35. Dars o‘quv faoliyatini tashkil etish shakli sifatida
36. O‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari
37. Dars tiplari. Maxmutov bo‘yicha dars tiplari
38. Zamonaviy darsga qo‘yiladigan talablar
39. Ma’ruza mashg‘ulotining mazmuni va uning tuzilishi, ma’ruza o‘qishga qo‘yiladigan talablar
40. Zamonaviy ma’ruza turlari
41. Pedagogik va psixologik fanlardan seminar mashg‘ulotini tashkil qilish va o’tkazish
42. O‘qituvchining seminar mashg‘ulotiga tayyorlanishi
43. Talabalarning seminar mashg‘ulotiga tayyorlanishi va unga qo‘yiladigan talablar
44. Pedagogik va psixologik fanlardan laboratoriya mashg‘ulotlarining mazmuni
45. Pedagogik va psixologik fanlardan laboratoriya mashg‘ulotlarining turlari, o’tkazilish tartibi
46. Psixologiyani o‘rganishda o‘quv mashg‘ulotlari taksonomiyasi
47. Psixologiyani o’qitishda og’zaki bayon metodlari
48. Psixologiyani o’qitishda ko‘rgazmali metodlar
49. Psixologiyani o’qitishda amaliy metodlar
50. O‘quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko‘ra ta’lim metodlari tasnifi
51. Pedagogik va psixologik fanlarni o’qitishda masofaviy ta’lim.
52. Pedagogik va psixologik fanlarni o’qitishda o‘zlashtirilgan ma’lumotlarni mustahkamlash metodlaridan foydalanish
53. Pedagogik fanlarni o’qitishda interfaol usullardan foydalanish
54. Psixologiyani o’qitishda interfaol usullardan foydalanish
55. Pedagogik va psixologik fanlarni o’qitishda dasturlashtirilgan ta’limdan foydalanish
56. Pedagogik va psixologik fanlarni o’qitishda muammoli ta’limdan foydalanish
57. Pedagogik va psixologik fanlarni o’qitishda qo‘llaniladigan interfaol usullar
58. Ijtimoiy psixologik trening va uni o’tkazish metodikasi
59. Pesixologiya fanlaridan nazorat turlari
60. Psixologiya fanlaridan bilimlarni nazorat qilish va baholash tamoyillari
61. Psixologiya fanidan bilimlarni baholash tiplari.
62. Pedagogik fanlarni o’kitishda ta’limning texnik vositalaridan foydalanish.
63. Pedagogik fanlarni o’qitishda fanlararo aloqalarni yo’llga qo‘yish metodikasi.
64. Pedagogik metodlarni o’qitishda ta’limning ko‘rgazmali metodlaridan foydalanish yo’llari.
65. Pedagogik fanlarni o’qitishda amaliy metodlarning ahamiyati.
66. L.V. Zankov kontseptsiyasi.
67. V.V. Davidov va D.V. Elkonin kontseptsiyasi.
68. Aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich rivojlanishi kontseptsiyasi.
69. «Didaktika – pedagogik ta’lim nazariyasi sifatida» mavzusini o’rganishda suhbat metodidan foydalanish.
70. Ma’ruza-munozara va undan foydalanish imkoniyatlari.
71. Konspekt ma’ruzaning pedagogik fanlarni o’qitishdagi afzalliliklari.
72. Pedagogik fanlarni o’qitishda ijodiy testlardan foydalanish metodikasi.

73. Pedagogik fanlarni o'qitishda grafik organayzerlarning o'rni.
74. Pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish.
75. Pedagogik fanlarni o'qitishda foydalaniladigan mustaqil ish turlari va ularning samaradorlik darajasi.
76. Seminar mashg'ulotlari va ularga qo'yiladigan didaktik talablar.
77. Amaliy mashg'ulotlar va ularni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari.
78. Pedagogik fanlarni o'qitishda darslik bilan ishlash texnologiyasi.
79. Pedagogik fanlarni o'qitishda matn tuzish texnologiyasi.
80. Pedagogik fanlarni o'qitishda ta'limming texnik vositalaridan foydalanish yo'llari.
81. Pedagogik fanlarni o'qitishda muammoli vaziyatlardan foydalanish metodikasi.
82. Pedagogik fanlarni o'qitishda kompyuterli ta'limdan foydalanish metodikasi.
83. Pedagogik fanlarni o'qitishda «Eng muhim tushunchalar» asosida mavzularni o'zlashtirish texnologiyasi.
84. «Abu Ali ibn Sinoning pedagogik qarashlari» mavzusini o'qitishda manbalardan foydalanish yo'llari.
85. Pedagogika darsliklari va ularga qo'yiladigan talablar.
86. Pedagogikaga oid o'quv qo'llanmalar va ulardan foydalanish yo'llari.
87. Zamonaviy pedagogika fani o'qituvchisi va unga qo'yiladigan talablar.
88. Pedagogik fanlar ta'lim mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar: tahlil va mulohazalar.
- 89.“Pedagogik mahoratning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni” mavzuni o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish
- 90.Oliy o'quv yurtlarida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish
- 91.“Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari” mavzusini o'qitish metodikasi
- 92.“Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalari” modulini o'qitish metodikasi
93. “O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi” mavzusini o'qitish metodikasi

3-ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**Pedagogika kafedrasи**

**Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi  
fanidan**

**KURS ISHI**

**Mavzu: Pedagogik fanlarni o'qitishda interfaol usullardan foydalanish.**

**Bajardi:**

**Boboyev B. –  
4-1PPS-18 guruh talabasi**

**Ilmiy rahbar:**

**Jurayev B.T. –  
o'qituvchi**

**Buxoro – 2021**

## **REJA**

### **Kirish**

### **I BOB. PEDAGOGIK FANLARNI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI**

- I.1. Ta'lim jarayonida interfaol usullardan foydalanish pedagogik muammo sifatida
- I.2. Pedagogik fanlarni o'qitishda interfaol usullardan foydalanishning ahamiyati

### **II BOB. PEDAGOGIK FANLARNI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING AMALIY ASOSLARI**


- II.1. Ma'ruza mashg'ulotlarida interfaol usullardan foydalanish yo'llari
- II.2. Seminar mashg'ulotlarida interfaol usullardan foydalanish texnologiyasi

### **Xulosa**

### **Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati**


### **Ilovalar**

Chap-3sm, past-2sm, yuqori-2sm, o'ng-1sm



**4-jadval. Ma’ruzani tahlil qilish chizmasi**

Ismi sharifi	Ma’ruza mazmun i va mantiqi	Tashqi qiyofa va o’z-o’zini boshqarish mahorati	Nutq texnikasi va ifodaliligi	Nutqning auditoriyaga qaratilganligi	Auditoriya diqqati va qiziqishi	O’rtacha ball



1.1- rasm. Ta'lim metodlarining ta'lim jarayoni boshqa komponentlari bilan aloqadorligi

**Tasdiqlayman: Kafedra mudiri**

“\_\_\_” 20\_\_\_y.

**Kafedra** \_\_\_\_\_**KURS LOYIHASI**

Kurs bo'yicha\_\_\_\_\_

Gurux\_\_\_\_\_ Talaba\_\_\_\_\_ Raxbar\_\_\_\_\_

**T O P Sh I R I Q**

1. Loyiha mavzusi:\_\_\_\_\_

---



---

2. Boshlang'ich ma'lumotlar:\_\_\_\_\_

---



---

3. Qo'llanmalar.\_\_\_\_\_

---



---

4. Chizma qismning tuzilishi:\_\_\_\_\_

---



---

5. Tushuntirish xatini tuzilishi:\_\_\_\_\_

---



---

6. Qo'shimcha topshiriq va ko'rsatmalar:\_\_\_\_\_

7. Loyihalar topshirish davri: Reja\_\_\_\_\_ Amalda\_\_\_\_\_

Bosqichlar					Himoya
1	2	3	4	5	

Rahbar\_\_\_\_\_

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	3
Kurs ishlarini yozish bo'yicha umumiy talablar .....	4
Kurs ishi mavzusini tanlash va rejasini ishlab chiqish.....	5
Kurs ishi bo'yicha tadqiqot materiallarini yig'ish va tahlil qilish.....	6
Kurs ishining tarkibiy tuzilishi .....	7
Kurs ishini rasmiylashtirishningumumiyl talablari .....	12
Kurs ishini himoya qilish .....	15
Kurs ishlariga taqriz yozish tartibi.....	16
Kurs ishlarini baholash mezonlari.....	17
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>	20
<b>Ilovalar.....</b>	22

